

MINTAQAVIY HAMKORLIK ORQALI TRANSCHEGARAVIY TA'SIRLARNI BOSHQARISH: MARKAZIY OSIYO TAJRIBASI

Abdusalomova Durdonaxon G'anijon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20794082>

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda Markaziy Osiyoda transchegaraviy nizolarni hal etishda mintaqaviy hamkorlikning o'рни va samaradorligi xalqaro huquq nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotning empirik asosini "Tashqi siyosiy tadqiqotlar va xalqaro tashabbuslar markazi" da o'tkazilgan stajirovka davomida olingan tahliliy materiallar, ekspert xulosalari va kuzatuvlar tashkil etadi. Tadqiqot natijasida mintaqaviy diplomatik mexanizmlarning afzalliklari, kamchiliklari hamda O'zbekistonning mintaqadagi tashabbuskor va muvofiqlashtiruvchi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: mintaqaviy hamkorlik, transchegaraviy nizolar, Markaziy Osiyo, xalqaro huquq, ikki tomonlama shartnomalar, O'zbekiston tashabbuslari, diplomatik kelishuvlar.

KIRISH

Xalqaro munosabatlar tarixida transchegaraviy nizolarni hal etishning ikkita asosiy modeli shakllanib kelgan: universal mexanizmlar orqali hal etish (Xalqaro Sud, arbitraj tribunallari) va mintaqaviy hamkorlik orqali hal etish (ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar, mintaqaviy tashkilotlar, diplomatik tashabbuslar). Ikkinchi model, ya'ni mintaqaviy yondashuv, ayniqsa o'tgan o'n yilliklarda iqtisodiy va ekologik transchegaraviy nizolarda markaziy ahamiyat kasb eta boshladi. Universal mexanizmlarning cheklanganligi haqida gap borganda, birinchi navbatda Xalqaro Sudning yurisdiksiyasi masalasi ko'tariladi. Sudga murojaat qilish ikki tomonlama rozilikni talab etadi, bu esa ko'plab holatlarda yakuniy yechimga kelishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, BMT Xavfsizlik Kengashidagi veto huquqi siyosiy jihatdan nozik transchegaraviy nizolarda kengashning samarali harakat qilishini cheklaydi. Arbitraj tribunallari esa ko'pincha uzoq muddatli jarayon bo'lib, ayniqsa resurslar cheklangan rivojlanayotgan davlatlar uchun jiddiy to'siq hisoblanadi. Aynan shu kontekstda mintaqaviy kelishuvlar o'zining moslashuvchanligi, manfaatdor tomonlarning yaqinligi va tez harakat qilish imkoniyati bilan transchegaraviy nizolarni hal etishning alternativ va ko'pincha samaraliroq vositasi sifatida xalqaro huquq amaliyotida mustahkam o'rin egallagan. "Tashqi siyosiy tadqiqotlar va xalqaro tashabbuslar markazi" da o'tkazilgan stajirovka davomida ushbu masala Markaziy Osiyo mintaqasi misolida kuzatuv obyektiga aylandi. Markaz faoliyatida mintaqaviy diplomatik tashabbuslar tahlili asosiy o'rinlardan birini egallaydi va bu holat mavzu bilan bevosita bog'liq empirik ma'lumotlar to'plash imkonini berdi.

MINTAQAVIY MEXANIZMLARNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Xalqaro huquqda mintaqaviy mexanizmlar tushunchasi BMT Nizomining VIII bobida mustahkamlangan. 52-modda bo'yicha mintaqaviy kelishuv va tashkilotlar xalqaro tinchlik va xavfsizlikka oid masalalarni hal etishda mustaqil rol o'ynashi mumkin, biroq ularning faoliyati BMT maqsad va tamoyillariga mos kelishi shart. Shu asosda mintaqaviy nizolarni hal etish mexanizmlari xalqaro huquqning legitim qismi sifatida qaralmoqda. Mintaqaviy kelishuvlar bir nechta shakllarda namoyon bo'ladi: ikki tomonlama shartnomalar va komissiyalar; ko'p tomonlama mintaqaviy tashkilotlar (masalan, ASEAN, ShHT, MDH); maxsus muammolar bo'yicha ad hoc konsultativ mexanizmlar; mintaqaviy arbitraj va mediatsiya institutlari. Har bir

format o'zining afzalligi va kamchiliklariga ega bo'lib, ularning qo'llanilishi nizoning tabiatiga, manfaatdor tomonlarning o'zaro munosabatlariga va mintaqaviy huquqiy madaniyatga bog'liq. Xalqaro huquq nazariyasida mintaqaviy mexanizmlarning universal institutlarga nisbatan quyidagi asosiy afzalliklari qayd etiladi: yaqin geografik va tarixiy aloqalar tufayli o'zaro tushunish imkoniyatining yuqoriligi; muammolarni yaqin muddat ichida hal etish moslashuvchanligi; manfaatdor tomonlarning to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilishi; mahalliy kontekstni chuqur hisobga olish qobiliyati.

Shu bilan birga, mintaqaviy kelishuvlarning bir qancha cheklangan tomonlari ham mavjud bo'lib, ularni tan olmasdan bo'lmaydi. Birinchi muammo bu kuchlar muvozanati. Ko'pgina mintaqalarda bitta dominant davlat mavjud bo'lib, uning siyosiy va iqtisodiy ta'siri mintaqaviy mexanizmlarni o'z manfaatlariga moslashtirib olish xavfini yuzaga keltiradi. Bunday holatlarda mintaqaviy "nizo hal etish" aslida kuchli tomonning istaklarini kuchsiz tomonga qabul qildirish vositasiga aylanib qolishi mumkin. Majburiy ijro mexanizmlarining yetishmasligi ham shu muammolar jumlasidan bo'lib, ko'pgina mintaqaviy kelishuvlar majburiy ijro vositalaridan mahrum bo'lib, taraflardan birining muzokaradan chiqib ketishi yoki kelishuvni bir tomonlama buzishi uchun hech qanday sanksiya nazarda tutmaydi. Bu esa mintaqaviy mexanizmlar orqali erishilgan yechimlarning uzoq muddatli barqarorligini kafolatlamaydi. Mintaqaviy tashabbuslar ko'pincha konkret masalaga – suv, energetika, chegara chiziqlariga qaratilgan bo'ladi. Biroq transchegaraviy nizolar o'zaro bog'liq bo'lgan holatlarda yaxlit yondashuvsiz qilingan yechim yangi nizolarga zamin yaratishi mumkin.

MINTAQAVIY KONTEKST: TRANSCHEGARAVIY TA'SIR MUAMMOLARI TAHLILI

Markaziy Osiyo mintaqasi o'zining geopolitik va geografik xususiyatlari tufayli transchegaraviy nizolarning turli turlari uchun noyob tajriba maydoni hisoblanadi. Beshta davlat - O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston o'rtasidagi munosabatlar suv resurslari, chegara belgilash, energetika tarmog'i va transport magistrallari masalalarida uzoq tarixga ega bo'lgan transchegaraviy bog'liqlik va ziddiyatlar tizimini tashkil etadi.

Suv muammosi: Amudaryo va Sirdaryo havzalari Markaziy Osiyo transchegaraviy munosabatlarining asosiy "qon tomirlari" hisoblanadi. Sovet davridagi markazlashtirilgan boshqaruv tizimi parchalanganidan so'ng, ushbu daryolar bo'yicha resurslarni taqsimlash muammosi mustaqil davlatlar o'rtasidagi eng murakkab masalalardan biriga aylandi. Yuqori oqim davlatlari (Qirg'iziston, Tojikiston) suv omborlarini energetika maqsadida boshqarsa, quyi oqim davlatlari (O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston) sug'orish va ichimlik suvi uchun ushbu suvlarga bog'liq.

Energetika bog'liqligi. Markaziy Osiyoning yagona energetika tizimi sovet davrida qurilgan bo'lib, mustaqillikdan so'ng davlatlar o'rtasida elektr energiyasini almashish masalasi murakkab transchegaraviy nizo manbaiga aylandi. Ayniqsa qishki davrda Tojikiston va Qirg'izistonning elektr energiyasi tanqisligi va Qozog'iston orqali tranzit masalasi yillik diplomatik muzokaralarga sabab bo'lib kelmoqda.

Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg'armasi (OQXJ) modeli. 1993-yilda tashkil etilgan MKOS Markaziy Osiyodagi eng institutsionallashtirilgan mintaqaviy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Jamg'arma beshta davlatni suv muammolari atrofida birlashtirib, transchegaraviy ekologik va suv resurslarini boshqarish masalalarida yagona platformani ta'minlab kelmoqda. Markazda o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, OQXJ faoliyatining asosiy kuchi uning siyosiy neytralligi

va texnik-amaliy yo'nalishidadir. Biroq jamg'armaning majburiy qarorlar qabul qilish vakolati yo'qligi uning samaradorligini cheklaydi. O'zbekiston tashabbusi bilan o'tkazilgan sammitlar esa 2016-2017-yillardan boshlab O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarini normallashtirishga qaratilgan siyosati mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining konsultativ uchrashuvlari formati ushbu jarayonning asosiy institutsional natijasi bo'ldi. Markazda amalga oshirilgan tahlillar ushbu formatning bir necha muhim xususiyatini ko'rsatdi: u rasmiy tashkilot maqomiga ega bo'lmagan holda ham samarali muloqot platformasi vazifasini bajarmoqda; uning "yumshoq" institutsional shakli manfaatdor tomonlarning turli qarashlari va yondashuvlarini muvofiqlashtirish uchun qulay maydon yaratmoqda. Stajirovka davomida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston-Qozog'iston, O'zbekiston-Qirg'iziston va O'zbekiston-Tojikiston o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar tizimi, ayniqsa 2017-yildan boshlab, sezilarli darajada kengaydi. Bu shartnomalar chegara masalalari, suv taqsimoti, energetika almashinuvi va transport magistrallarini qamrab oladi. Ko'p hollarda ushbu shartnomalar transchegaraviy nizolarni hal etishda ancha tezroq va samaraliroq natija bermoqda, chunki tomonlar bevosita muloqotda bo'lib, o'zaro manfaatlarni aniq belgilash imkoniga ega.

Mintaqaviy hamkorlik faqat texnokratik masala sifatida ko'rilganda emas, balki eng yuqori siyosiy darajada bosh agendaga kiritilganda samarali natija bermoqda. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining bevosita ishtiroki sammitlar formatini oddiy texnik muzokaralardan sifatli ravishda farqlantiradi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, fuqarolik jamiyati va mahalliy hamjamiyatlar ishtirokisiz amalga oshirilgan mintaqaviy kelishuvlar amalga oshirish bosqichida qiyinchiliklarga duch keladi. Aholining bevosita hayotiga ta'sir qiluvchi transchegaraviy masalalar (suv, chegara, ekologiya) bo'yicha jamoatchilik muhokamasini ta'minlash uzoq muddatli barqarorlik uchun zaruriy shart hisoblanadi.

XULOSA

Mintaqaviy kelishuvlar transchegaraviy ta'sirlarni boshqarishda universal mexanizmlarning to'liq o'rnini bosa olmasa-da, ular ko'pgina hollarda tezroq, samaraliroq va amalda amalga oshirish osonroq bo'lgan yechimlarni ta'minlaydi. Ayniqsa taraflar o'rtasida tarixiy, madaniy va iqtisodiy yaqinlik mavjud bo'lgan hollarda mintaqaviy format ustunlik qiladi. Markaziy Osiyo tajribasi shuni ko'rsatdiki, mintaqaviy mexanizmlarning samaradorligi ularning institutsionallashuv darajasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Biroq ortiqcha institutsionallashuv moslashuvchanlikni yo'qotish va byurokratik to'siqlarga olib kelishi mumkin. Optimal model OQXJ va konsultativ sammitlar tajribasida ko'rilganidek institutsional barqarorlik va muloqot moslashuvchanligi o'rtasidagi muvozanatni saqlash hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi tashabbuskorlik roli 2017-yildan buyon sezilarli darajada oshdi. Ushbu tajriba O'zbekistonning mintaqaviy tashabbuskor va muvofiqlashtiruvchi rolini mustahkamlash uchun ham siyosiy, ham huquqiy jihatdan kuchli zamin yaratdi. Mintaqaviy hamkorlikning samaradorligini oshirish uchun ekspert va akademik hamjamiyatning ishtiroki zaruriy shart hisoblanadi. "Tashqi siyosiy tadqiqotlar va xalqaro tashabbuslar markazi" kabi tashkilotlar aynan shu funksiyani bajarib, ilmiy tahlil va amaliy diplomatiyani bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajarmoqda. Tavsiyalar bo'yicha quyidagilarni ta'kidlash zarur: Markaziy Osiyo mintaqasida transchegaraviy ta'sirlarni boshqarishning mintaqaviy mexanizmlarini yanada rivojlantirish uchun ularni majburiy ijro

choralari bilan ta'minlash va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish; O'zbekistonning mintaqaviy tashabbuskorlik rolini xalqaro huquqiy asosda mustahkamlash va bu boradagi milliy ekspertiza salohiyatini rivojlantirish; shuningdek, mintaqaviy va universal nizo hal etish mexanizmlarini raqib emas, balki bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida rivojlantirish kerak. Yakuniy mulohaza sifatida shuni ta'kidlash lozimki, stajirovka davomida shakllantirilgan ushbu xulosalar dissertatsiya tadqiqotining uslubiy bazasini sezilarli darajada boyitdi. Mintaqaviy tashabbuslar orqali transchegaraviy nizolarni hal etish masalasi xalqaro huquqdagi transchegaraviy ta'sir muammolarining muhim tarkibiy qismi sifatida yanada chuqur o'rganishni talab qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. BMT Nizomi, 1945. VIII bob, 52-54-moddalar. www.un.org.
2. International Law Commission, Draft Articles on Prevention of Transboundary Harm from Hazardous Activities (2001), UN Doc. A/56/10. URL: https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/draft_articles/9_7_2001.pdf.
3. Sands P., Peel J. Principles of International Environmental Law. – 4th ed. Cambridge University Press, 2018.
4. Birnie P., Boyle A., Redgwell C. International Law and the Environment. 3rd ed. Oxford University Press, 2009.
5. Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg'armasi (MKOS) nizomi va hisobotlari. <https://aral.uz/en/about/>.